



O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERVYU MATNLARINING O'RNI

O'rinoval Binafsha Erali qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda intervyu janridagi matnlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada intervyu matnlarining ta'limiyl salohiyati, ular bilan ishslashning samarali usullari hamda dars jarayonidagi amaliy qo'llanishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: intervyu, o'qib tushunish, matn bilan ishslash, tanqidiy fikrlash, savol-javob usuli, o'quvchi faolligi, dars metodikasi, funksional savodxonlik.

Annotation: This article analyzes the possibilities of using interview-genre texts in developing students reading comprehension skills. It highlights the educational potential of interview texts, effective methods of working with them, and their practical application in the classroom.

Keywords: interview, reading comprehension, working with texts, critical thinking, question-and-answer method, student engagement, lesson methodology, functional literacy.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish ta'lif tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'qib tushunish – bu nafaqat matnni anglash, balki uning mazmunini tahlil qilish, muallifning maqsadini tushunish va asosiy g'oyani ajratib olishni ham o'z ichiga oladi.

O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda turli metod va yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan biri – intervyu matnlardan foydalanishdir. Intervyu matnlari o'zining jonli muloqotga asoslanganligi, turli bilimlar mujassamligi bilan o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, savol berish, tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarga matnni faqat o'qish emas, uni chuqur anglash va o'z tahlillarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu borada o'quvchilarning o'qib



tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda intervyu matnlarining o‘rni ahamiyatlidir. Ushbu turdagи matnlar o‘zining jonli muloqotga asoslanganligi, turli nuqtai nazarlarlarni mujassamlashtirishi bilan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, matnni tahlil qilishga va asosiy mazmunni ajratib olishga o‘rgatadi.

Intervyu matnlari – bu ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, unda suhbatdoshlar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi. Bu janr o‘zining tabiatи bilan ajralib turadi. U matnlarni nafaqat o‘qishga, balki tinglashga ham imkon beradi. Intervyu matnlari turli shaxslar o‘rtasidagi muloqotga asoslanganligi bois, o‘quvchilarda matnni faqat so ‘zlashuv sifatida emas, o‘zaro fikr almashish jarayoni sifatida tushunishiga yordam beradi.

O‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish uchun intervyu matnlari samarali vosita hamda usul hisoblanadi. Ular o‘quvchilarni matnning asosiy mazmunini ajratib olishga, turli qarashlarni tahlil qilishga va nuqtai nazarlarni solishtirishga o‘rgatadi. Masalan, intervyu matnida qatnashgan shaxslarning fikrlarini solishtirish orqali o‘quvchilar o‘z nuqtai nazarlarini yaratishlari mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini oshiradi.

Intervyu matnlari bilan ishlashda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Savol-javob usuli: Intervyu matni asosida o‘quvchilarga savollar berish, ularni matnni tahlil qilishga undaydi. Savollar orqali o‘quvchilarning matnni angash darajasini tekshirish mumkin.

“Endi hammasi o‘zgardi” — shaxmatchi Gulruhbegim Tohirjonova O‘zbekiston termasiga qaytishi haqida

Gulruhbegim Tohirjonova — O‘zbekistonning eng kuchli shaxmatchilaridan biri. U 2020-yili federatsiya bilan ziddiyat tufayli AQSh terma jamoasiga o‘tgandi. Yaqinda esa O‘zbekiston terma jamoasiga qaytdi. “Gazeta.uz”ning shaxmat sharhlovchisi Georgiy Shvanov u bilan eng dolzarb va global mavzularda suhbatlashdi.

— Terma jamoaga qaytganingizdan so ‘ng nimalarni his qilyapsiz?

— Juda xursandman. Qachondir bu yerga qaytaman, deb o‘ylamagandim.

Lekin ko‘p o‘zgarishlar yuz berdi, men bu haqda ko‘p gapirdim. Hissiyotlar har xil,



chunki bu yangi va kutilmagan holat. Lekin men baribir qaytganidan va yana O'zbekiston sharafini himoya qilishim mumkinligidan xursandman.

— Mamlakatimizda sizni qanday kutib olishdi? Balki aeroportda kutib olishgandir?

— Aeroportda kutib olishmadi (kuladi). Matbuot anjumani bo'ldi, jurnalistlar bilan uchrashdik. Ularning fikrlarini eshitish qiziq edi. Lekin, umuman olganda, uchrashuv rasmiy o'tdi — bu hammasi men o'zim va qaytganim haqidagi xabarni ommaga taqdim etishim uchun tashkil etilgan edi.

— Endi O'zbekiston uchun rasman o'ynay olasizmi? Qandaydir muddat ichida boshqa federatsiyada o'ynash mumkin emas, degan talab yo'qmi?

— Agar federatsiyani bepul o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, ikki yil kutish va rasmiy turnirlarda o'ynamaslikka to'g'ri keladi. (Ikki yil o'tishini kutmay) to'g'ridan-to'g'ri chiqish qilmoqchi bo'lsangiz, pul to'lashingiz kerak. Lekin bu borada muammo bo'lmadi.

— Demak, 2025-yilgi Osiyo o'yinlarida ham, 2026-yilgi Olimpiadada ham terma jamoamiz safida ishtirok etasiz, shundaymi?

— Ha.

(Matndan qisqa parcha keltirilgan)

1. Sportchi nima sababdan o'zini xursand his qilmoqda?

2. U ilgari O'zbekistonga qaytishini o'ylaganmi? Javobingizni matndan dalil bilan asoslang.

Izoh: yuqoridagi savollar orqali o'quvchilarning his qilish, matndan xulosa chiqarish, ma'lumotlarni asoslay olish kabi jihatlarini rivojlantiradi.

Asosiy g'oyani ajratish: O'quvchilardan intervyu matnining asosiy g'oyasini ajratib olishni so'rash, ularning muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

1. Nega sportchi faqat shaxmat emas, balki o'qishni ham tanlagan?

- A) Shaxmatdan charchaganligi uchun
- B) Yangi narsalarni o'rganishni yoqtirgani uchun
- C) Oilasining bosimi tufayli



D) Amerikada o‘qish majburiy bo‘lgani uchun

To‘g‘ri javob: B

Nuqtayi nazarlarni solishtirish: Intervyu matnida ishtirok etgan shaxslarning fikrlarini solishtirish orqali o‘quvchilar turli qarashlarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

1. Quyidagilardan qaysi biri sportchining shaxmatdagi kelajak rejalariga haqidagi pozitsiyasini aniq ifodalaydi?

- A) U endi faqat ta’lim bilan shug‘ullanmoqchi, shaxmatni tark etadi.
- B) U shaxmatni sevadigan, lekin katta yutuqlar haqida o‘ylamaydigan sportchi.
- C) U shaxmatda yuqori cho‘qqilarni ko‘zlaydi va championlik ambitsiyalariga ega.
- D) U shaxmatni o‘zining asosiy kasbi deb hisoblamaydi.

To‘g‘ri javob: C

Intervyu matnlarini dars jarayonida quyidagi shakllarda qo‘llash mumkin:

Darsning kirish qismida: Yangi mavzuga kirishdan oldin, mavzu bilan bog‘liq intervyu matnnini o‘qish orqali o‘quvchilarning e’tiborini jalg qilish.

Asosiy qismida: Intervyu matnnini tahlil qilish, savol-javoblar orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish.

Mustahkamlash bosqichida: Intervyu matni asosida test savollarini tuzish, asosiy g‘oyani ajratish va nuqtai nazarlarni solishtirish kabi mashqlarni bajarish.

Tajriba

Yuqoridagi tajribalar Yakkasaroy tumani 144- mактабнинг 6-sinflarida qo‘llanildi. Bu tajribadan foydalanish orqali o‘quvchilarda nafaqat o‘qib tushunish, balki fikr bildirish, mulohaza yuritish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga erishildi. Intervyu matni asosida tashkil etilgan dars jarayonlari o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatga, hayotiy voqealarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ular bilan ochiq muloqot qilish imkonini berdi.

Intervyu janridagi matnlar o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali o‘quvchilar matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyani anglash muallif va so‘zlovchining nuqtai nazarlarini farqlash hamda fikr bildirish malakalarini rivojlantiradilar. Intervyu matnlari dars jarayonida o‘quvchilarni faollikka chorlaydi, ularni mustaqil fikr yuritishga va o‘z fikrlarini



asoslashga o'rgatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intervju matnlari asosida ishslash o'quvchilarda nafaqat o'qib tushunish, balki fikr bildirish va muloqotga kirishish malakasini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sobirov M.Matn ustida ishslash jarayonida o'quvchi so'z boyligini oshirish.Til va adabiyot ta'lifi.Toshkent. 1998. 1-son. 38 b.
- 2.Rasulov M. Matn bilan ishslash metodikasi. Toshkent.: "Ma'naviyat", 2021.
- 3.Vygotsky,L.S.(1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge,MA:Harvard University Press.
- 4.Shonazarova D. Intervyu olishda jurnalist mahorati:maqola.Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. –Volume 2, Issue 1,2023.

References:

- 1.Sobirov M.Matn ustida ishslash jarayonida o'quvchi so'z boyligini oshirish.Til va adabiyot ta'lifi.Toshkent. 1998. 1-son. 38 b.
- 2.Rasulov M. Matn bilan ishslash metodikasi. Toshkent.: "Ma'naviyat", 2021.
- 3.Vygotsky,L.S.(1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge,MA:Harvard University Press.
- 4.Shonazarova D. Intervyu olishda jurnalist mahorati:maqola.Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. –Volume 2, Issue 1,2023.